



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4/1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис ин ституту

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институту ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash choralarini o'rganish va takomillashtirish	73
Дурбек Мирзаахмадов Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобат устунлигини таъминлаш механизмлари	78
Bobir Xo'jaqul o'g'li Qilichov Xizmat ko'rsatish sohasi bo'lgan sug'urta va turizm korxonalari samaradorligining qiyosiy tahlili	82
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Дилбар Хасановна Асланова, Нигина Тажиевна Юсупова Оценка перспектив создания кластера в туристском секторе экономики Республики Узбекистан	87
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Сардор Олимович Рахимов Сотрудничество между туроператорами и гостиницами как залог успешной продажи гостиничных номеров в Узбекистане	94
Farrux Oltinboyevich Husanov Turistik oqimlar va transport masalalarini modellashtirish	98
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari	102
G'ayrat Soyibovich Raupov Turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi	110
Shohista Bobobekovna Toyirova O'zbekistonda ekologik turizmning yangi turizm yo'nalishi sifatida rivojlanish tendensiyasi	115
Камилла Бахромовна Суюнова Худудий брендни шакллантириш мақсадида давлат-хусусий шериклик алоқаларини ривожлантириш истиқболлари	119
Latofat Tolibovna Yo'ldosheva Samarqand viloyati turizm sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari	123
Матлуба Абдиманабовна Куймуратова Жаҳонда туризмнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари	127
Kamol Sharifovich Yuldashev Xalqaro tajriba asosida O'zbekistonga mustaqil turistlarni jalb qilishda viza siyosatining ta'siri	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўллари	137
Marjon Komilovna Sharifova Ziyorat turizmini strategik rivojlantirish va tahlil qilish yo'llari	140
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Умар Худайбердиев Оила муносабатларидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари	145
Акрам Одилович Очилов, Жаббор Махмудович Суюнов Критерии оценки деятельности субъектов предпринимательства в регионах	147
Шавкат Собирович Олтаев Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ошириш йўллари	152

G‘ayrat Soyibovich Raupov – Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONINING KONSEPTUAL MODELI VA DIVERSIFIKATSIYA MATRITSASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatida mavjud madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: diversifikatsiya, madaniy meros, konseptual model, ziyoratgoh, optimallashtirish, xizmatlar integratsiyasi, raqamli xizmatlar, tabaqalanuvchanlik matritsasi

Kirish. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli qarori bilan, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda jami moddiy madaniy meros obyektlari soni 8 210 tani tashkil etgan [17]. Shundan: arxeologiya yodgorliklari – 4797 ta, arxitektura yodgorliklari – 2266 ta, monumental yodgorliklar – 617 ta, — diqqatga sazovor joylar – 530 ta, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi bergan ma‘lumotlarga asosan 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Buxoro viloyatida jami 829 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shulardan: arxitektura yodgorliklari – 507 ta; arxeologiya yodgorliklari – 287 ta; diqqatga sazovor joylar – 18 ta; monumental san‘at yodgorliklari – 17 tani tashkil etadi [18].

Diversifikatsiya turli sabab va omillar ta‘siri ostida yuzaga kelgan ma‘lum bir shart-sharoitlar holatida tavakkalchilik darajasini imkon qadar kamaytirish yoki undan biznes yuritishning oqilona uslublari vositasida qochishni anglatib, murakkab holatlardagi vaziyat rivojlanish jarayonlariga borib taqaladi. Ushbu tadqiqot ishining yana bir muhim maqsadi turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning madaniy meros obyektlaridan foydalanish munosabatlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan maqbul strategiyalarni tanlash, ularni qo‘llash vositasida obyekt biznes muhitiga ta‘sirini tizimli tahlil, statistik tahlil, klassifikatsiyalashtirish metodlari orqali aniqlashdan iborat. Madaniy meros obyektlarida turizm faoliyatini amalga oshirish kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun nihoyatda qulay ekanligi, turizm xizmatlar eksport hajmini oshirish va budjet tushumlariga munosib hissa qo‘shishni ham anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. H.Zhang Janubiy Koreya madaniy meros obyektlari, hamda turistlarning mazkur inshootlarda ko‘rsatiladigan xizmatlardan qoniqish darajasi yuzasidan o‘rganishlar olib borgan[2]. C.Dodd[3] madaniy meros obyektlari tadqiqotlari natijasida qilgan xulosalariga ko‘ra madaniyatlararo muvofiqlik boshqa mamlakat hamda madaniyatga moslashish jarayoni yoki istagi deya fikr bildiradi. D.J.Timothy[4], C.Teo, N.Khan, F.H.Abd Rahim[5], L.Xu, J.Zhang, Z.Nie[6], Z.Bujdosó, L.Dávid, G.Kovács, V.Major-Kathi, A.Tózsér[7] A.Menor-Campos, J.C.Pérez-Gálvez, A.Hidalgo-Fernandez, T.Lopez-Guzman[8] singari olimlar va tadqiqotchilar madaniy meros va turizm, madaniy meros obyektlarining insonlar xulq atvoriga hamda taklif tizimi shakllantiriladigan hudud iqtisodiyotiga ta‘siri, barqaror turizm va madaniy meros obyektlarida xizmatlarni rivojlantirish mavzularida keng miqyosdagi izlanishlar olib borishgan.


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishida Buxoro viloyatida mavjud madaniy meros obyektlarining statistik ko‘rsatkichlari, qaysi maqsadlarda foydalanilayotganligi tahliliy asosda o‘rganiladi, hamda qiyosiy tahlillar amalga oshiriladi. Hududlarning o‘ziga xos potensial hamda resurs imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning o‘ziga xos yo‘nalishlari induksiya, deduksiya, ilmiy abstraksiya metodlari vositasida aniqlashtirilib, eng ilg‘or xorij tajribasi yutuqlariga asoslangan holda, muallif tomonidan ishlab chiqilgan “madaniy meros obyektlarini diversifikatsiya qilish modeli” asoslab berilib, uni amaliyotga tadbiiq etish imkoniyatlari o‘rganiladi, xulosalar qilinadi va ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Madaniy meros obyektlari tarkibida 31 ta madrasa, 105 ta masjid, 14 ta maqbara, 133 ta arxitektura ansambllari (tarkibi bilan), 15 ta karvonsaroylar, 4 ta tim va toqlar, 122 ta qadimiy uy-joylar mavjud [16]. O‘rganishlarimizga ko‘ra, Buxoro viloyatidagi mavjud madaniy meros obyektlarining respublika miqyosidagi ulushi 10,09% ni tashkil etgani holda, arxitektura yodgorliklari 22,3% , arxeologiya yodgorliklari 6%, diqqatga sazovor joylar 3,4%,

monumental san’at yodgorliklari 2,75% ni tashkil etadi.

1993-yilda YUNESKONing Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilib, 216 gektar maydonni egallagan Buxoro tarixiy markazi va uning 339 gektarlik muhofaza hududi xalqaro miqyosda turistlar orasida nihoyatda mashhur. 2023-yilning sentyabr oyida Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida o‘tkazilgan YUNESKO Umumjahon merosi qo‘mitasining 45-sessiyasi “Ipak yo‘li Zarafshon Qoraqum koridori” nominatsiyasida Buxoro viloyatidan 7 ta madaniy meros obyekti jumladan, Poykent, Varaxsha, Vardonze, Chor Bakr va Bahouddin Naqshband majmualari, Vobkent minorasi, Chashmai Ayub xazirasi YUNESKONing Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi [15].

Madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayoni (1-rasm) qanday shaklda amalga oshirilishi xususidagi o‘rganishlarimiz natijasida sxema shakllantirilib, unga ko‘ra birinchi navbatda mamlakatning turizm siyosatini yuritishga oid qonunchilik bazasi hamda me‘yoriy huquqiy asoslarning yetarli darajada ta‘minlanganligi inshootlardan



1-rasm. Madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli¹

¹ muallif ishlanmasi

foydalanishda yangicha iqtisodiy yondashuvlarni qo‘llay olishning asosi sifatida baholanadi.

Fikrimizcha, qonun va qonunosti hujjatlari turizm sohasida tadbirkorlik va biznes yuritish tartibini imkon qadar soddalashtirish, tegishli asoslarga ko‘ra qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratib berish, faoliyat ko‘rsatish jarayonlariga sun‘iy to‘siqlar qo‘yilishini oldini olish hamda biznes vakillarini davlat kafolati ostida saqlanishini ta‘minlab berishi lozim.

Xizmat ko‘rsatish jarayonining uzluksizligini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, turli murakkab vaziyatlar, tashqi va ichki muammolar vujudga kelganida menejment sohasi vakillari qat‘iy qaror qabul qilishi talab etiladi. Haqiqatan ham boshqaruv apparatisiz korxonalar yoki tashkilot bir butun tizim sifatida samarali faoliyat yuritmaydi. Boshqaruv apparati o‘zining iyerarxiyasiga ega bo‘lib, mazkur ierarxiya har qanday korxonaning boshqaruv tuzilmasida aniq ifodalanadi[13]. Madaniy meros obyektlari menejment tizimi tashkiliy jarayonlarni nazorat qilgan ekan, xizmat ko‘rsatishni yanada samarali tashkil etish maqsadlarini ko‘zlab, turistlarning talab hamda ehtiyojlari tahliliga va korxonaning o‘z strategik rejalariga tayangan holda, xizmatlarni diversifikatsiya qilish bo‘yicha qaror qabul qiladi.

N.S.Ibragimovning “jug‘rofiy nuqtai nazardan bir nechta ma‘muriy hududni o‘zida mujassamlashishi bilan birga tashrif maqsadining xilma-xilligi sababli sayohat bir nechta turistik maskanlardan tashkil topganligi, *tabaqalanuvchanlik omili* sayohat maqsadi va diqqatga sazovor joylardan foydalanib, turistik bozor segmentlarining talablariga mos ravishda sayohatgohlarni tabaqalash maqsadga muvofiq[14]”ligi borasidagi ilmiy xulosasiga tayangan holda, “*madaniy meros obyektlari tabaqalanuvchanligi*” tushunchasini ilmiy tadqiqotlarda qo‘llashni taklif etamiz va shunga muvofiq, MMOlari tabaqalanuvchanligi va diversifikatsiya maqsadlari matritsasi muallif tomonidan shakllantirilib, 2-rasmda keltirib o‘tildi.

Madaniy meros obyektlari soni	bir	1. Bir diversifikatsiya maqsadi va bir madaniy meros obyekti(1:1)	2. Bir nechta diversifikatsiya maqsadlari va bir madaniy meros obyekti (1:n)
	bir nechta	3. Bir diversifikatsiya maqsadi va bir nechta madaniy meros obyekti(n:1)	3. Bir nechta diversifikatsiya maqsadlari va bir nechta madaniy meros obyektlari(n:n)
		bir	bir nechta
		Diversifikatsiya maqsadi	

2-rasm. Diversifikatsiya maqsadi va madaniy meros obyektlari tabaqalanuvchanligi matritsasi¹

Jadvalning birinchi katakchasida diversifikatsiya bir madaniy meros obyektida amalga oshirilib, taklif tizimi shakllantiruvchilarining bir maqsadini amalga oshirilishini ta‘minlaydi. Ushbu jarayon “1:1” formulasi orqali ifodalangan. Misol tariqasida, Ark qal‘asida segment qamrovini oshirish bir maqsad sifatida belgilanib, diversifikatsiya jarayoni amalga oshirilishi.

Ikkinchi katakchada diversifikatsiya maqsadlari endilikda bitta emas, balki bir nechta bo‘lib, ular bir madaniy meros obyektida amalga oshiriladi va mazkur jarayon “1:n” formulasi vositasida ko‘rsatib berilgan. Aytish joizki, odatda ko‘plab diversifikatsiya strategiyalarini amalga oshirish bir nechta maqsadlarni amalga oshirilishini ko‘zda tutib, misol uchun Ko‘kaldosh

¹ Muallif ishlanmasi

madrasasida amalga oshiriladigan diversifikatsiyadan maqsad turistlar sonini oshirish bilan bir vaqtda, raqobat ustunliklari va daromadni oshirishni ham koʻzda tutadi.

Uchinchi katakchaga koʻra bir diversifikatsiya maqsadi bir nechta madaniy meros obyektlarida amalga oshiriladi va u jadvalda “n:1” formulasi orqali belgilab berilgan. Masalan, Kalon masjidi, Abdurahmon A’lam madrasasi, Xotam Hindu madrasasi va Abdulazizxon madrasalarida turizm bozori oʻzgaruvchanligi sharoitiga koʻra yangi texnologiyalarni joriy etish zarurati yuzaga kelib, xizmat koʻrsatishga joriy etilishini keltirib oʻtishimiz mumkin.

Toʻrtinchi katakchada keltirilganidek, bir nechta madaniy meros obyektlarida mos ravishda turli xildagi diversifikatsiya maqsadlarini amalga oshirish talab etilgani holda yondashuv ham shunga oʻxshash tashkil etilib, “n:n” formulasi orqali ifodalangan. Jumladan, Chor Minor madrasasi va Bahouddin Naqshband ziyoratgohlarida turistik oqimni tartibga solish uchun xizmatlarni moslashtirish strategiyasini amalga oshirish rejalashtirilib, Badriddin va Sayfiddin karvonsaroylarida turistlar sonini oshirishni koʻzlab yangicha ekskursion xizmat turini joriy etish, yoki har bir obyekt uchun individual boʻlgan boshqa maqsadlarga erishish nazarda tutilishi mumkin.

Madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash yoʻnalishlarining turli jihatlari tahlil qilinib, jumladan, *ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, menejment* hamda *moliyaviy* jihatlarning diversifikatsiya jarayonlarida shakllanuvchi tarkibiy qismlari oʻrganildi. Har bir yoʻnalishga muvofiq keltirib oʻtilgan beshtadan, jami 25 ta tarkibiy qism ularning tarkibiy elementi sifatida qayd etib oʻtilib, bizning fikrimizcha, mazkur elementlar madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning oʻziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Buxoro viloyatida madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning istiqbolli yoʻnalishlarini oʻrganish boʻyicha quyidagi xulosalarga kelindi va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oʻrganishlarimizga koʻra, Buxoro viloyatidagi mavjud madaniy meros obyektlarining respublika miqyosidagi ulushi 10,09 % ni tashkil etgani holda, arxitektura yodgorliklari 22,3 % , arxeologiya yodgorliklari 6 % , diqqatga sazovor joylar 3,4 % , monumental sanʼat yodgorliklari 2,75 % ni tashkil etadi.

3. Madaniy meros obyektlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish bevosita Madaniy meros agentligi bilan bogʻliq ekanligini inobatga olib, agentlik tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga koʻrsatilayotgan davlat xizmatlari hamda ular uchun belgilab qoʻyilgan toʻlov miqdorlari tahlil qilindi. Natijalarga koʻra, koʻrsatiladigan xizmatlar uchun qonunchilik asosida belgilangan toʻlovlar bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 2 % dan 40 barobarigacha oraliqda – 7500 soʻmdan, 15 million soʻmgacha (2024-yil 1-oktabrdagi oʻzgartirishlar inobatga olinganida) etib belgilanganligi maʼlum boʻldi.

4. Buxoro viloyatida madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning asosiy yoʻnalishlari aniqlanib, bizning fikrimizcha, mazkur sohada diversifikatsiya yoʻnalishlari juda keng tarmoqlanish xususiyatiga ega boʻlsada ulardan eng asosiylari sifatida *yangi turistik xizmat turlarini ishlab chiqish, segmentlarni koʻpaytirish, raqamli xizmatlar, majmuaviy yoki mahsulot va xizmatlar integratsiyasi, kooperatsiya, xizmat koʻrsatish jarayonlarini optimallashtirish, global bozorga chiqish, gibrid xizmatlar kabi yoʻnalishlari* ahamiyatlilik va xususiyatlar darajasiga koʻra ajralib turadi.

5. Xalqaro va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili, shuningdek, Buxoro viloyatining mavjud potentsiali eʼtiborga olinib, tadqiqotlar natijasida, madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayoni sxemasi shakllantirilib modellashtirildi.

6. Adabiyotlarni oʻrganish natijasida diversifikatsiya maqsadi va madaniy meros obyektlari tabaqalanuvchanligi matritsasi ishlab chiqilib, 1:1, 1:n, n:, n:n formulalari asosida izohlab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-iyuldagi “ 2023 — 2025-yillarda Buxoro viloyatida paxta-toʻqimachilik va gʻallachilik klasterlari hamda kasanachilikni rivojlantirish orqali aholi bandligini taʼminlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” PQ-214-son qarori
2. Zhang H. et al. The influence of cross-cultural awareness and tourist experience on authenticity, tourist satisfaction and acculturation in World Cultural Heritage Sites of Korea //Sustainability. – 2018. – T. 10. – №. 4. – C. 927.

3. Dodd, C. Dynamics of Intercultural Communication, 5th ed.; McGraw-Hill Publishing: New York, NY, USA, 1998.
4. Timothy D. J. Cultural heritage and tourism: An introduction. – Channel View Publications, 2011. – Т. 4.
5. Teo C. B. C., Khan N. R. M., Abd Rahim F. H. Understanding cultural heritage visitor behavior: the case of Melaka as world heritage city //Procedia-Social and Behavioral Sciences. – 2014. – Т. 130. – С. 1-10.
6. Xu L., Zhang J., Nie Z. Role of cultural tendency and involvement in heritage tourism experience: developing a cultural tourism tendency–involvement–experience (TIE) model //Land. – 2022. – Т. 11. – №. 3. – С. 370.
7. Bujdosó, Z., Dávid, L., Kovács, G., Major-Kathi, V., & Tózsér, A. (2014). Cultural heritage as a new element of tourism and experience economy. Enhancing competitiveness of V4 historic cities to develop tourism, 81.
8. Menor-Campos, A., Pérez-Gálvez, J. C., Hidalgo-Fernandez, A., & Lopez-Guzman, T. (2020). Foreign tourists in world heritage sites: A motivation-based segmentation. Sustainability, 12(8), 3263.
9. Strategik islohotlar agentligi tomonidan Buxoro viloyati SWOT-tahlili. <https://asr.gov.uz/news/11370>
10. Ystrom, A. and Agogue, M. (2020), “Exploring practices in collaborative innovation: unpacking dynamics, relations, and enactment in in-between spaces”, Creativity and Innovation Management, Vol. 29 No. 1, pp. 141-145.
11. Mendonça, V., Varajão, J. & Oliveira, P. (2015). Cooperation networks in the tourism sector: multiplication of business opportunities. Procedia Computer Science, 64, 1172-1181. DOI: 10.1016/j.procs.2015.08.552
12. Bititci, U. S., Martinez, V., Albores, P. & Parung, J. (2004). Creating and Managing Value in Collaborative Networks. International Journal of Physical Distribution and Logistics Management, 34(3-4), 251-268. DOI: 10.1108/09600030410533576; Costa T., Lima M. J. Cooperation in tourism and regional development //Tourism & management studies. – 2018. – Т. 14. – №. 4. – С. 50-62.
13. Чудновский А. Д., Жукова М. А. Менеджмент туризма //учебник/АД Чудновский, МА Жукова.–М.: Финансы и статистика. – 2002.
14. N.S.Ibragimov. Turistik hududlarni boshqarish // Buxoro. “Sadridin Salim Buxoriy” - Durdona, 2022. 57-b.
15. Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi taqdim etgan 2024-yilgi ma'lumotlar
16. <https://yuz.uz/uz/news/buxoroda-madaniy-meros-obyektlarini-restavratsiya-qilish-boyicha-investorlar-hamkorlikka-chorlanmoqda>
17. <https://uzreport.news/culture/ozbekistonda-nechta-moddiy-madaniy-meros-obyektlari-borligi-ochiqlandi> <https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/6715-o-zbekiston-respublikasida-moddiy-madaniy-meros-obyektlari-soni-qancha>
18. <https://buxstat.uz/uz/matbuot-markazi/buxoro-yangiliklar/10078-buxoro-viloyatida-moddiy-madaniy-meros-obyektlari-soni-qancha>

<p>Г.Раупов</p> <p>Концептуальная модель процесса диверсификации туристических услуг и матрица диверсификации</p> <p>Аннотация: В данной статье разработаны концептуальная модель и диверсификационная матрица процесса диверсификации туристических услуг на существующих объектах культурного наследия в Бухарской области.</p> <p>Ключевые слова: диверсификация, концептуальная модель, оптимизация, интеграция сервисов, цифровые услуги, матрица дифференциации.</p>	<p>G.Raupov</p> <p>Conceptual model of the process of diversification of tourist services and diversification matrix</p> <p>Abstract: In this article, a conceptual model and a diversification matrix of the process of diversification of tourism services at existing cultural heritage sites in the Bukhara region have been developed.</p> <p>Keywords: diversification, cultural heritage, conceptual model, optimization, integration of services, digital services, differentiation matrix.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 05.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.